



QORAMOLLARNI BO'RDOQILASH

Respublikamiz aholisini sifatli go'sht mahsulotlari bilan talab darajasida ta'minlashda qoramollarni zoti, zotdorligi, yoshi, saqlash va parvarishlash sharoiti hamda oziqlantirish texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda go'sht ishlab chiqarish uchun bo'rdoqilanayotgan yosh chorva mollarini oziqlantirishda xo'jalikda mavjud oziqalardan tashqari oziq-ovqat sanoati, konserva zavodlari, pivo va vino ishlab chiqarish zavodlari, paxta va yog' sanoati chiqindilari hamda oshxona chiqindilari kabi arzon oziqalardan foydalangan holda yosh qoramollarni 18 oyligidayoq 400-450 kg –ga yetkazish texnologiyasini qo'llash samarali natijalar beradi.

Yosh qoramollardan jadal texnologiya asosida go'sht yetishtirish quyidagi uch davrdan iborat: 4-6 oylik erkak buzoqlar 4 oy davomida parvarish hamda keyingi 4 oy davomida o'stirish va oxirgi 2-4 oyda jadal bo'rdoqilash davrlarini o'z ichiga oladi.

Parvarishlash davrida oziqaning 35 % ni dag'al, 30 % ni omuxta oziqalar qolgan 35% % ni shirali oziqalar tashkil qiladi. O'stirish davrida konsentrat oziqalar miqdori 39 % ga ko'paytirish orqali jadallashtiriladi. O'rtacha kunlik o'sish 800 grammni tashkil qiladi. Bo'rdoqilash texnologiyasi bo'yicha 150 kun bo'rdoqilanadi. Bo'rdoqilash davri ham 3 davrga bo'linadi. 30 kun tayyorlash, 60 kun asosiy va 60 kun yakuniy. Ushbu davrda yosh qoramollar vazni kuniga 900-1000 grammdan o'sadi.

Bo'rdoqilashning 1-davrda oziqlantirish ratsionining to'yimliliigi bo'yicha quruq moddaga nisbatan 38 % ni shirali, 19% ni dag'al hamda 43 % ni konsentrat oziqalar tashkil qiladi. 2 davrdan boshlab mollarning ratsioniga paxta sheluxasi



kiritiladi hamda konsentrat oziqalar miqdori 44% ga yetkaziladi. Bo'rdoqilashning 3 davrida o'rtacha kunlik o'sish 1000 grammni tashkil qiladi. Mollarga beriladigan oziqalar yaxshilab maydalanadi, aralashtiriladi, osh tuzi va mineral tuzlar qo'shilib omuxta holda beriladi. Ratsionda konsentrat oziqalar 56 % ga ko'tariladi, shirali oziqalar 27 %, paxta





sheluxasi 17 % ni tashkil etib, o'rtacha 13,5 kilogramm ozuqa birligiga yetkaziladi.

Dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda mollarni bo'rdoqilashda yengil tipdagi binolar va ayvon, bostirmalarda foydalanish hamda oziqlantirishda esa somon, pichan, paxta sheluxasi, shrot, kepak, oziq-ovqat sanoati, poliz va sabzavot ekinlari chiqindilaridan foydalanib amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Dag'al ozuqalarni to'yimlilikini oshirish uchun 3-4 sm uzunlikda maydalanadi, pivo va vino bardasi yoki kepak atalasi qo'shib uvitiladi. 100 kg somonga 100-120 litr 1 % li tuzli suv qo'shib, har bir bosh qoramolga 80-100 grammdan mochevina qo'shib beriladi. Bunday usulda tayyorlangan ozuqa qoramollar oshqozonida tez hazm bo'ladi va to'yimliliigi oshadi.

Maqola muallifi

O`tkir Soatov

*TDAU Umumiy zootexniya va
veterinariya kafedrasi professori
qishloq xo'jaligi fanlari doktori*